# IJTIMOIY FANLARNI RAQAMLI JAMIYATDA O‘QITISHNING DOLZARBLIGI

**Xakimov Alisher Olimjonovich**
Sarbon universitetining Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

***Annotatsiya***
*Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning dolzarbligi, uning nazariy-metodologik asoslari hamda ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda ta’limni insonparvarlashtirish jarayonlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati va ijtimoiy-gumanitar fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi roli yoritiladi. Muallif tomonidan sohani rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.*
***Kalit so‘zlar****: raqamli jamiyat, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ta’lim tizimi, insonparvarlik, pedagogik texnologiyalar, milliy taraqqiyot, uzluksiz ta’lim.*

## KIRISH

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, ta’lim tizimiga ham tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli jamiyat shakllanayotgan bir davrda ta’limning mazmuni, shakli va metodlari yangicha yondashuvni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilikni mustahkamlash, huquqiy demokratik jamiyat barpo etish hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayonda ta’lim tizimini isloh qilish, uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. Chunki aynan ushbu fanlar insonning ma’naviy dunyosini shakllantiradi, uning fuqarolik pozitsiyasini belgilaydi hamda jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo‘nalishida qayta qurish eng asosiy va markaziy muammolardan biridir.Ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyasi va konsepsiyasi ta’lim-tarbiya tizimidagi mana shunday kamchiliklami bartaraf etishga, O‘zbekistonning o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlarini amalga oshirishga qodir va layoqatli, ma’naviy barkamol va malakali mutaxassislami yetishtirishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarga ehtiyojning ortishini Prezidegntimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikridan yaqqol anglashimiz mumkin: ―Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan birtomonlama texnokratik yondoshuv, bu boradagi masalalarga ajabtovur bir ―o‘gay‖ qarash shakllanib qolgan. Ayni paytda, afsus bilan qayd etish mumkinki, haligacha uzluksiz ta'lim bosqichlarida, ayniqsa oliy ta'limda ijtimoiy fanlarni qancha hajmda va qanday yo‘nalishlarda, qay bir shaklda va qanday

mazmunda o‘qitish va o‘rgatish bo‘yicha yaxlit kontseptsiya yo‘q”. [1] Agar masalaga yanada jiddiyroq yondoshadigan bo‘lsak, insonni qadrlaydigan sifat va fazilatlar qanday shakllantiriladi, ularni kim va qachon, qanday usullarda o‘rgatadi? Bularning javobini biz bevosita ilm-fan, ta’lim tarbiyadan topamiz. Aynan insnnning ma'naviy kamolini, insoniy qadr-qimmatini shakllantiradigan fanlar bu - ijtimoiy-gumanitar fanlardir. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda yuzaga kelayotgan muammolar inson qadrini yo‘qolishiga, jamiyatdagi beqarorliklarni yuzaga kelishiga, insonlardagi loqaydlik, sovuqqonlik, mas‘uliyatsizlik kayfiyatini yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Chindan ham so‘nggi yillarda mamlakatmizda tub burilish davrini boshlab berib, amalga oshirilayotgan islohatlar orqaga qaytmas va to‘xtatib bo‘lmas suratlarda rivojlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar inson, jamiyat va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi. Bu fanlar orqali shaxsda quyidagi muhim sifatlar shakllanadi:

- tanqidiy fikrlash;
- ijtimoiy mas’uliyat;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat;
- fuqarolik ongining rivojlanishi.

Ta’lim tizimida ushbu fanlarga yetarli e’tibor qaratilmasligi jamiyatda loqaydlik, ijtimoiy befarqlik va ma’naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish nafaqat pedagogik, balki strategik ahamiyatga ega.

Raqamli jamiyat sharoitida ta’lim tizimi quyidagi o‘zgarishlarga duch kelmoqda: masofaviy ta’limning kengayishi; raqamli platformalar va onlayn resurslarning ko‘payishi; sun’iy intellekt asosida o‘qitish metodlarining joriy etilishi; ta’limning individuallashtirilishi.

Bu o‘zgarishlar ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda ham yangi yondashuvlarni talab qiladi. Endilikda faqat nazariy bilim berish yetarli emas, balki talabalarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va raqamli muhitda faoliyat yuritishga o‘rgatish zarur.

O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini insonparvarlashtirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon quyidagilarni nazarda tutadi:

shaxsni markazga qo‘ygan ta’lim modeli; ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish; ta’lim mazmunini milliy qadriyatlar bilan boyitish.

Ta’limni insonparvarlashtirish orqali jamiyatda ma’rifatli, ongli va mas’uliyatli fuqarolarni shakllantirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

- Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda mavjud muammolar:
- O‘quv dasturlarining eskirganligi va takroriy mavzularning mavjudligi;
- Zamonaviy o‘qitish metodlarining yetarli darajada qo‘llanilmasligi;
- Sifatli o‘quv adabiyotlarining kamligi;
- Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi;
- Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish.

Mazkur muammolarni bartaraf etish ijtimoiy-gumanitar fanlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlantirish yo‘nalishlari va takliflar

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish;

innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

raqamli ta’lim platformalarini yaratish;

ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini kuchaytirish;

yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish;

fanlararo integratsiyani rivojlantirish.

Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda interaktiv metodlar, muammoli ta’lim, кейс-стади va loyiha asosida o‘qitish usullaridan keng foydalanish zarur.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning milliy o‘zlikni shakllantirishdagi roli

Mazkur fanlar milliy identitetni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ular orqali:

tarixiy xotira tiklanadi;

milliy qadriyatlar mustahkamlanadi;

fuqarolik ong va mas’uliyat rivojlanadi.

Bu jarayon raqamli jamiyat sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki global axborot oqimi milliy madaniyat va qadriyatlarga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Ushbu fanlar nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, jamiyatda barqarorlikni ta’minlash va milliy o‘zlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash orqali ijtimoiy-gumanitar fanlarni yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi –T, 2021. –B.228.
2. Xakimov, A., & Absattorov, B. (2023). TASAVVUF TA’LIMOTIDA NAFS MA’RIFATI. Universalnaya indeksnaya biblioteka Yevraziyskogo jurnala sotsialnix nauk, filosofii i kulturi, 3(2), 91-95.
3. Khakimov, A. (2021). The role of political and legal culture in ensuring civic responsibility in society. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.2 Historical sciences).
4. Umirdinov, A., & Khakimov, A. (2020). Tensions between Domestic and International Law for Supremacy in Uzbekistan.